

KAMBAG'ALIKNI QISQARTIRISH DOLZARB IQTISODIY- IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA

Mirsagatov Islom Furqatovich

Toshkent Davlat iqtisodiyot Universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada kambaga'llikning umumiy mohiyati va uni bartaraf etish doirasida qilinishi lozim bo'lgan ishlar, amaldagi chora-tadbirlar, islohotlarning tahlili ko'rsatilgan. Ushbu muammoni hal qilish zarurati haqida bazi tavsiyalar berilgan.

Kalitso'zlar: kambag'allik, kompleks chora-tadbirlar, ijtimoiy himoya, mahsulot, o'rtacha kambag'allik darajasi, o'rtacha daromad, tahlil, iqtisodiyotni rivojlantirish

KIRISH

Mamlakatimizda kambag'al aholi mavjudligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida birinchi marta rasman qayd etildi. Murojaatnomada "Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir. Shuning uchun Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birga Kambag'allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqishni taklif etaman.deb alohida takidlab¹ o'tgan edilar.

Jahonda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilish, ularning samaradorligini oshirish, investitsiyalarni keng jalb qilish ustuvor yo'nalishga aylanmoqda. Xususan kambag'allikni bartaraf etish va ijtimoiy barqarorlikni yo'lga qo'yish masalasi ham bugun xalqaro darajaga ko'tarilmoqda. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra "dunyoda 3,5 mingdan ziyod erkin iqtisodiy zonalar bo'lib, ular 140 mamlakatda joylashgan².

ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakat va mintaqa iqtisodiyotida erkin iqtisodiy zonalarining umumnazariy jihatlarini xorijiy olimlar³ I.L.Kim, J.A.Leddin, M.V.Brendan, Syuy Szoshe, Say Jensyun, A.Aggarval va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlaridan K.Babagulov, A.Esentugelov, Ye.Avdokushin, T.P.Danko, Z.M.Okrut, M.C.Guseriev, Yu.Komlev singari olimlar tomonidan erkin iqtisodiy zonalarining hududiy muammolari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'siri va boshqaruv jarayonlariga alohida e'tibor qaratilgan. Mamlakatimiz olimlaridan M.A.Abdusalyamov, T.M.Ahmedov, A.M.Sodiqov, O.O.Olimjonov, F.T.Egamberdiev, A.V.Mamatqulov, Sh.H.Nazarov, A.B.Nizamov, H.M.Saydaxmedov, A.R.Xoliqulov, H.R.Hamroev⁴ va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ijtimoiy mo'tadillik va kambag'allikga qarshi kurashish mexanizmlari shuningdek mintaqaviy iqtisodiyotda erkin iqtisodiy zonalarining turli yo'nalishdagi muammolari yoritilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

² <http://www.uzdaily.uz/uz/post/1637>

³ Rashidov Mels Karimovich "Mintaqa iqtisodiyotini erkin iqtisodiy zonalar faolligini ta'minlash asosida rivojlantirish 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati Toshkent – 2021 6-b

⁴ Абдусалыамов М. О целях и методологических основах региональной политики. Научно-исследовательский центр "Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана" при ТГЭУ. – Ташкент, 2015 г.; Ахмедов Т.М. и др. Региональная экономика: Учебное пособие. – М.: Изд. РЭА им.Г.В.Плеханова. 2006. 231 с.;

TADQIQOT METODIKASI VA EMPIRIK TAHLIL

Avvalo ushbu muammoni tahlil qilishdan oldin kambag'allik tushunchasiga alohida to'xtalish lozim. Kambag'allik – har bir shaxs yoki ijtimoiy guruhning yashashi, mehnat qobiliyatini saqlashi, avlodni davom ettirishi uchun zarur bo'lgan minimal ehtiyojlar ma'lum doirasini qanoatlantirmaydigan iqtisodiy holatning tavsifidir. Kambag'allik nisbiy tushuncha hisoblanadi va mazkur jamiyatda turmush darajasining umumiy standartiga bog'liq bo'ladi. U oilani boqish va kiyintirish, maktabda o'qish yoki kasalxonada davolanish, o'z erida iste'mol mahsulotlarini etishtirish yoki yashashga imkon beradigan daromad topadigan ishga ega bo'lish, shuningdek, kreditlarni olish huquqi imkoniyatlarining yo'qligida namoyon bo'ladi⁵ Iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy nuqtai nazardan eng xavfli kambag'allik shakli surunkali kambag'allik hisoblanadi. Bu holda jamiyatning ma'lum guruhlarida yoki alohida mintaqalarda kambag'allik ko'payishi cheklangan vaziyat tizimli ravishda tasvirlanadi, ya'ni, odamlarning bir necha avlodi qachonlardir kambag'allikni keltirib chiqargan omillar va sabablarni engishga qodir bo'lmaydilar.⁶

Bugungi kunda qabul qilingan kambag'allik darajasi kuniga 1,90 AQSh dollariga teng bo'lib, xarid qilish qobiliyati pariteti (XQQP) Birlashgan millatlar tashkiloti Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YeIK) mintaqasidagi davlatlar uchun juda pastdir. Ushbu vaziyatni to'g'rilash uchun Jahon banki o'rtacha daromadli mamlakatlarda kambag'allikning ikki yoki undan ko'p miqdoridan foydalanishni taklif qiladi. Mutlaq kambag'allikning boshqa muammolari ularning XQQPning bazaviy yilini, milliy valyutadagi daromadlarni AQSh dollariga konvertatsiya qilish kursiga va XQQPni hisoblashda foydalaniladigan tovarlar savatchasiga nisbatan yuqori sezgiriligida namoyon bo'ladi.

NATIJALAR

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, kambag'allik muammosi mavjud. Xususan global iqtisodiy inqiroz va texnogen hodisalar sharoitida kambag'allik muammosini yumshatish zarur. Vujudga kelgan vaziyatda kambag'allik muammosini to'liq bartaraf etib bo'lmaydi. Shuning uchun, bizning fikrimizcha kambag'allik muammosini hal etishni quyidagi bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

Kambag'allik darajasini joriy yil darajasidan pastga tushirmay imkon qadar qisqatirish. Bu davr ichida Bunday tadbirlar kambag'allik muammosini vaqincha yumshatishga ko'maklashsada, uni batamom hal etmaydi.

Bu jarayon 2-3 yillik muddat davrni o'z ichiga qamrab oladi. Bu davrda iste'mol savatchasi va hayot kechirishning eng quyi darajasi mutanosibligini ta'minlash, kambag'allik muammosiga chek qo'yish, O'zbekiston Respublikasida uy-ro'zg'or xarajatlarining 83,2% ni iste'mol xarajatlari tashkil etsa, shuning 39,4% ni oziq-ovqatlarga, 16,8% iste'mol xarajatlariga to'g'ri keladi. Bu bosqich jarayonida aholini ish bilan ta'minlanishi orqali kambag'allikka chek qo'yish asosiy vazifa bo'lmog'i lozim.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining o'rtacha kunlik 3000-3500 kkal energiyasi sarfi asosan non va makaron mahsulotlari hamda meva va sabzavotlar iste'mol hisobidan qoplangan. Bularning iste'mol darajasi fiziologik me'yor darajasidan 1,5-2 barobar baland bo'lib, sut va go'sht mahsulotlari bo'yicha iste'mol darajasi fiziologik me'yor darajasidan aksincha 1.5-2 barobar ortda qolmoqda. Ushbu bosqichda aholi iste'molidagi har bir tovar guruhi fiziologik normaga mos ravishda bo'lishi zarur. Umuman olganda, rivojlangan mamlakatlarda shu jumladan O'zbekistonda ham kam ta'minlangan, kambag'al aholi qatlamlari mavjud bo'lib, bu muammoni hal etish ushbu sohadagi qabul qilingan

⁵ .Руководство по измерению бедности. ЕЭК,ООН,Нью-Йорк-Женева,2017 г. с.4

⁶ Qutliev Orif Adizovich "Kambag'allik va uni o'zbekistonda baholashga yondashuvlar" Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining makroiqtisodiy barqarorligini taminlash: muammolar, tahlillar va natijalar" onlayn, ilmiy-masofaviy konfyerensiyasi tezislari to'plami tezislari to'plami www.escience.uz

choratadbirlarni yuqorida qayd etilgan bosqichma-bosqich ishlab chiqish va uni amalga oshirish darajasiga bog'liqdir.

XULOSA VA MULOHAZALAR

Xulosa qilib aytganda kambag'allik har bir mamlakatning barqaror iqtisodiyoti va istiqbol rejalariga to'sqinlik qiladigan asosiy muammolarda hisoblanadi va usbu masalani hal qilish bugun dunyo hamjamiyati oldida turgan dolzarb maslalardan hisoblanadi. Albatta ushbu muammoning echimini faqat nazariy xulosa va tahlillar bilangina emas, balki aniq tasirchan mexanizmlar va xalqaro standartlar darajasiga javob bera oladigan chora-tadbirlar bilangina hal etish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-son. 26.03.2020 yil. (Decree (2020) No. PD-5975 of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to radically update the state policy on economic development and poverty reduction." 26.03.2020.)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947- sonli Farmonining 1-ilovasi «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» //www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi 2019 yil ma'lumotlari. Toshkent 2020 yil.
4. World Employment and Social Outlook 2017: Sustainable enterprises and jobs: Formal enterprises and decent work International Labor Office – Geneva: ILO, 2017.
5. R.X.Ayupov, G.V.Boltabobeva. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish muamolari va yechimlari .-T.TMI.-2013.
6. www.review.uz internet-axborot markazi.
7. hhts://www/pv.uz